

**BOJXONA ITTIFOQIGA A'ZO MAMLAKATLARGA MEVA VA
SABZAVOT EKSPORT QILISHDA, BOJXONA ITTIFOQI (EAES) NING
HUQUQIY VA ME'YORIY TALABLARINI ANIQLASH**

Ochilova Sadoqat Odil qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi:

Rashidov Firdavs Ro‘ziboy o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Talaba:

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish, me’yoriy xujjatlari jahon savdo tashkiloti me’yoriy xujjatlariga to‘liq muvofiqlashtirish, meva va sabzavot mahsulotlari sifati bo‘yicha nazorat ishlari, me’yoriy xujjatlar bilan ishslash.

Kalit so‘zlar: standart, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavsizligi, bojxona ittifoqi, eksportbop mahsulotlar.

ABSTRACT

This article focuses on the development of agricultural exports, the full harmonization of regulatory documents with the regulatory documents of the World Trade Organization, quality control of fruit and vegetable products, work with regulatory documents.

Keywords: standard, agriculture, food security, customs union, export products, documents.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «**Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar» to‘g‘risidagi PF-4848-sonli farmoni, ijrosini ta’minlash maqsadida «**O‘zstandart**» agentligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, misol tariqasida oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish soxasini oladigan bo‘lsak, hammamizga ma'lumki eksportbop maxsulotlarni ishlab chiqarish, sifat ko‘rsatgichlarini nazorat qilish va uni eksport qilish mobaynida maxsulotning eksport qilinadigan mamlakatning maxsulotga qo‘yilgan meyoriy**

xujjatlari talablarini o‘rganish, va sifat ko‘rsatgichlarini laboratoriyalarda tekshirilishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati bu mamlakatning xavfsizligi va qudrati, aholining salomatligi va sog‘lom turmush tarzi, yuksak eksport salohiyati va shu bilan birga iqtisodiyotning turli tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida rivojlanirishning muhim manbai ham hisoblanadi.

Respublikamiz aholisini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan

taminlash maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ichki ehtiyojning 80% o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar evaziga taminlanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash siyosati «ming yillik rivojlanish dasturi» talablariga to‘liq javob beradi. Bu esa, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish, saqlash va mahsulotlarni qayta ishslash ishlarini jadal rivojlantirish uchun samarali choralar ko‘rilganini anglatadi. Shuningdek, qishloq infratuzilmasini rivojlantirishda ijobjiy tavsiflar ko‘zga tashlanadi. Gap eksport faoliyatini yaxshilash haqida ketganda shuni takidlash joizki, sifat masalasi boshqa masalalarga nisbatan yuqori o‘ringa ega bo‘lgandagina biznes keyingi yangi bosqichga o‘tishi mumkin. Ya’ni milliy mahsulotlarimiz sifat ko‘rsatgichlari xalqaro standartlar talablariga muvofiq bo‘lganda, milliy mahsulotlarimizni eksport qilish uchun shartnoma imzolanishi mumkin. Meva va sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun, savdo to‘silarni bartaraf etish, eksport-import munosabatini o‘rnatish maqsadida mutaxassislar tomonidan xorijiy bozorlar o‘rganilib, huquqiy va me’yoriy talablari aniqlanmoqda. Ushbu maqolada biz bojaxona ittifoqiga a’zo mamlakatlarga meva va sabzavot maxhsulotlarini eksport qilishda bojaxona ittifoqi (**YeAES**) ning talablari haqida alohida to‘xtalib o‘tmochimiz.

Mahalliy tadbirkorlarni eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalarini hal qilish maqsadida, ko‘pchilik tashkilotlar jalb qilingan. Ular orasida «O‘zstandart» agentligi muhim o‘ringa ega. «O‘zstandart» agentligi, bugungi kun aktual vazifasidan bo‘lgan standartlashtirish, mahsulot va xizmatni sertifikatlashtirish, ularni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilinishidagi to‘silarni bartaraf qilish kabi masalalarda yordam ko‘rsatadi. Shuni aytish joizki, bojaxona ittifoqining barcha me’yoriy hujjatlari jahon savdo tashkiloti me’yoriy hujjatlariga to‘liq muvofiqlashtirilgan. Mahsulotlarni bojaxona ittifoqi mamlakatlariga eksport qilinganligi aniq dalillar bilan tasdiqlanganda ya’ni, bojaxona hodimlariga mahsulotni eksport qilayotganligini tasdiqlovchi xujjat shartnoma taqdim etilganida eksport qiluvchi korxonalar qo‘srimcha qiymat solig‘i (**QQS**) va aksiz to‘lovidan ozod qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish bojxona ittifoqi mamlakatlari bozorlarida qayta ishlangan mahsulotlarni ko‘payishi bilan chambarchast bog‘liq, mamlakat iqtisodiyoti va aholi uchun katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari tomonidan bojxona ittifoqi mamlakatlariga quyidagi turdagি mahsulotlar, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksportini yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq:

- Yangi meva va sabzavotlar
- Poliz ekinlari (qovun, tarvuz)
- Konservalangan sabzavotlar va sharbatlar (djem, varenya va boshqalar)
- Quruq mevalar (mayiz, turshak)
- Grek yong‘oqlari, xandon pista, bodom
- Asal, spirtli ichimliklar, mineral suvlar va alkagolsiz ichimliklar.

Bu mahsulotlarni eksport qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun, texnik jixatdan tartibga solish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya majburiy talablarini bajarish zarurdir.

Bojxona ittifoqi mamlakatlarida meva va sabzavot mahsulotlarini xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqligini baholash, ishlab chiqaruvchining shaxsiy isboti bo‘yicha deklaratsiya yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Yangi sabzavotlarni, kartoshka, poliz ekinlari, mevalar, rezavorlar, qo‘ziqorin, yong‘oq (ko‘chat va urug‘ materiallaridan tashqari) mahsulotlari muvofiqligini tasdiqlash uchun quyidagi sifat ko‘rsatgichlari aniqlanishi lozim: mahsulot tarkibidagi toksikologik elementlar (qo‘rg‘oshin, margimush, kadmiy va simob); nitratlar (sabzavotlar uchun); pestitsidlar, mikotoksinlar (alfatoksin V) yong‘oqlar uchun), gjijalar va boshlang‘ich ichak protozoa, tashqi buzilish, aynish alomatlari, achchiq mag‘iz (danaklar uchun); radionukliedlarning miqdori tekshiriladi.

Katta partiyadagi sertifikatlangan meva va sabzavot mahsulotlarini bosqichma-bosqich bir nechta avtotransportlarda yagona savdo nuqtasi orqali realizatsiya qilinishida, butun bir partiyaga muvofiqlik sertifikati bir marta rasmiylashtiriladi. Bu holatda, mahsulot yetkazib berilganda, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan sertifikatdan nusxa yoki tovar yo‘l xujjalariга sertifikatlanganligi haqida belgi qo‘yiladi.

Shu bilan birga, marinadlangan, tuzlangan, quritilgan va yarim tayyor mahsulotlaga muvofiqlik deklaratsiyasini rasmiylatirish zarur. Sifat nazorati, barcha danakli mevalarda, uzumda, rezavorlar va o‘tlarda yuk kelib tushirilgan vaqtidan boshlab 12 soatdan, sabzavotlar, kartoshka, poliz ekinlari 24 soatdan, sitrus mevalar 48 soatdan kechikmay o‘tkaziladi. Olmalarga esa eng kechki yetilish muddatigacha rasmiylashirilishi mumkin.

Bojxona ittifoqi sanitariya nazorati ostidagi bir qator tovarlarni, bojxona xududiga olib kirilishidan oldin, bojxona ittifoqining sanitariya-epidemiologiya nazorati vakolatli organlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi va bojxona ittifoqi yagona shakli ro‘yxatidan o‘tganligi haqida guvohnoma bo‘lishi lozim, hamda bojxona ittifoqining yagona sanitariya talablari vakolatli idoralarida va laboratoriylarida o‘tkazilishi lozim.

Bojxona ittifoqi davlatlariga nazorat ostidagi tovarlarni import qilishda, veterinariya va sanitariya talablarining bajarilishi doimiy nazorat qilinadi va milliy veterinariya va sanitariya talablaridan ancha yuqori hisoblanadi.

Qo‘sishmcha tarzda mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatsiyadan o‘tishi mumkin. Muvofiqlik sertifikati, bojxona ittifoqi davlatlarida seriyalik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga 5 yil muddatga beriladi. Mahsulotni partiyasiga sertifikat rasmiylashtirilayotganda muvofiqlik sertifikati yaroqlilik muddati belgilanmaydi. Shuni xam ta’kidlash joizki, bojxona ittifoqiga a’zo mamlakatlar hududida muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilishi bo‘yicha xujjatlar to‘plami, ishlab chiqarish to‘xtatilgan kundan boshlab yoki partiyadagi oxirgi dona mahsulotni realizatsiya qilgan kundan boshlab 10 yildan kam bo‘limgan muddatgacha saqlanishi lozim.

Davlat statistika va Davlat bojxona qo‘mitalarining ma’lumotlariga muvofiq joriy yil yanvar-mart oylarida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari importining tarkibi 2021-yil importining tarkibiga nisbatan sezilarli darajada o‘zgargan. Xususan, margarin va o‘simlik yog‘i, go‘sht, kartoshka va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushi ortgan.

Shuningdek, import geografiyasi, mahsulot turlarining ulushi va hajmi ham nisbatan o‘zgargan bo‘lib, asosiy mahsulot import qilib olingan davlatlar ichida birinchi o‘ringa Qozog‘iston 309,7 mln dollar, ikkinchi o‘ringa Rossiya Federatsiyasi 205,2 mln dollar va uchinchi o‘ringa 97,5 mln dollar hajm bilan Braziliya davlatlari yitakchilik qilib kelmoqda.

XULOSA

Hukumatning sa’y-harakatlari birinchi navbatda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash orqali aholining o‘zimizda ishlab chiqarilmay import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini uzlusiz, to‘liq assortimentda va hajmda qondirishga hamda bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minalashga qaratilgan. Shuningdek, yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan Respublika oziq-ovqat sanoati korxonalarining xomashyo, yarim tayyor va to‘ldiruvchi mahsulotlar bilan ta’minalashga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqoladan mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarga mahsulotlarini eksport qilish bilan bog'liq va bojxona ittifoqi (**YeAES**) me'yoriy - huquqiy talablari haqidagi savollarga javob olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Isaev R.I., Karimova U.N. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish
2. Клевлеев В.М. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебник. Москва, ИМПРАМ., 2004, 422 стр.
3. <https://www.lex.uz> - O'zR Adliya vazirligi sayti.
4. <https://www.metrologiya.uz>
5. <https://www.standart.uz>
6. <https://www.agro.uz>
7. <https://www.spot.uz>